

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxonqir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA OLIISH SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

INTEGRATION OF COMPUTER GRAPHICS TECHNOLOGIES INTO PROJECT-BASED LEARNING: PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS

Rasulbek Qurbon Khojamqulov

Lecturer, Department of Applied Arts and Design
Gulistan State University, Uzbekistan

Abstract. This article highlights the significance of employing computer graphics technologies in project-based learning within engineering education. The research findings demonstrate that this approach effectively enhances students' design competencies, technical thinking, and creative problem-solving skills. The results emphasize the necessity of integrating digital graphic tools into the educational process to improve the quality and effectiveness of engineering training.

Keywords: engineering education, computer graphics, project-based learning, design competencies, digital technologies.

KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li

Guliston davlat universiteti
"Amaliy san'at va dizayn" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada muhandislik ta'limida loyiha asosida o'qitish jarayonida kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuv bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetensiyalari, texnik tafakkuri va kreativ fikrlashini rivojlantirishini ko'rsatadi. Olingan xulosalar raqamli grafik vositalarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: muhandislik ta'limi, kompyuter grafikasi, loyiha asosida o'qitish, loyihalash kompetensiyalari, raqamli texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N55>

Kirish. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, xususan kompyuter grafikasi vositalarining ta'lim tizimiga keng joriy etilishi, muhandislik ta'limining mazmuni, metodikasi va tashkiliy shakllarini tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak muhandislardan nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki murakkab texnik muammolarni tahlil qilish, ularni modellashtirish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va natijalarni vizual asoslash qobiliyatlari ham talab etiladi [1:12]. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida loyiha asosida o'qitish yondashuvi yetakchi pedagogik model sifatida qaralib, ushbu jarayonda kompyuter grafikasi texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda.

Kompyuter grafikasi vositalari muhandislik obyektlari va jarayonlarini raqamli muhitda aks ettirish, ularni tahlil qilish va optimallashtirish imkonini berib, talabalarning fazoviy tafakkuri, texnik tasavvuri va kasbiy dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bilan birga, loyiha

faoliyati jarayonida grafik texnologiyalardan foydalanish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga xizmat qilib, ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2:45].

Bundan tashqari, AR (kengaytirilgan reallik) va VR (virtual reallik) texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi murakkab konstruksiyalarni interaktiv tarzda vizualizatsiya qilish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa bo'lajak muhandislarning vizual tafakkurini yanada rivojlantiradi va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi [7:156]. Shu nuqtai nazardan, kompyuter grafikasi texnologiyalarining loyiha asosida o'qitish jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqot loyiha asosida o'qitish metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy kompyuter grafikasi dasturlari – AutoCAD, SolidWorks, Revit, Blender va SketchUp keng qo'llanildi [3:38]. Ushbu dasturlar talabalarga murakkab mexanik va konstruktorlik obyektlarini modellashtirish, ikki va uch o'lchamli chizmalarni yaratish, animatsiyalar va vizualizatsiyalar orqali loyiha natijalarini interaktiv tarzda taqdim etish imkonini beradi [8:46]. Shu bilan birga, metodik yondashuv real muhandislik faoliyatiga yaqinlashtirilgan loyiha topshiriqlariga asoslanib, talabalarni grafik modellashtirish, konstruktiv yechimlar ishlab chiqish, turli dizayn variantlarini sinab ko'rish va yakuniy natijalarni professional standartlarga mos rasmiylashtirish jarayonlariga faol jalb qilgan.

Tadqiqot davomida pedagogik tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, unda tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirildi. Nazorat guruhida an'anaviy o'qitish usullari asosida mashg'ulotlar olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida loyiha asosida kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanilgan holda ta'lim tashkil etildi. Shu bilan birga, tajriba guruhida AR va VR texnologiyalari integratsiyalash orqali murakkab konstruksiyalarni virtual muhitda vizualizatsiya qilish, ularni interaktiv tarzda tahlil qilish va sinovdan o'tkazish imkoniyati yaratildi, bu esa talabalar tajribasini real muhandislik jarayonlariga yaqinlashtirdi [11:269]. Talabalarining bilim va kompetensiyalarini baholashda bir nechta metodlar kombinatsiyasi qo'llanildi: test sinovlari orqali nazariy bilimlar tekshirildi, loyiha ishlarining ekspert tahlili orqali amaliy kompetensiyalar baholandi, pedagogik kuzatuv orqali jarayon davomiyligi va talabalar faoliyati monitoring qilindi, shuningdek, so'rovnomalar va suhbat metodlari orqali talabalar o'zlarining ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini namoyon qildilar [7:159; 13:36]. Bundan tashqari, metodlar tarkibiga raqamli vositalardan foydalanish jarayonida talabalar faoliyatini analitik tarzda tahlil qilish ham kiritildi. Masalan, uch o'lchamli modellashtirish jarayonida xatoliklar, konstruktiv yechimlarning mosligi va vizual ko'rinish sifatini baholash orqali talabalar muammolarni tahlil qilish va samarali yechim ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirdilar [11:270]. Shu tarzda, tadqiqot metodikasi talabalarining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash imkonini berib, loyiha asosida o'qitish samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Tajriba-sinov ishlarining natijalari loyiha asosida kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etilgan ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini aniq ko'rsatdi. Eksperimental guruh talabalarini texnik topshiriqlarni bajarishda yuqori aniqlik, mantiqiylik va kreativ yondashuvni namoyon etdilar [2:52]. Ularning grafik

tafakkuri, fazoviy tasavvuri va murakkab muammolarni vizual tahlil qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi, bu esa talabalarning loyiha ishlariga yondashuvi sifatida aniq ifodalanadi.

Solishtirma tahlil natijalariga ko'ra, tajriba guruhida o'quv natijalari nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 35-40 foizga yuqori bo'ldi. Ayniqsa, loyiha ishlari sifati, grafik hujjatlarning standartlarga mos rasmiylashtirilishi, murakkab konstruksiyalarni tahlil qilish va yakuniy natijalarni vizual taqdim etish darajasida yaqqol ijobiy o'zgarishlar kuzatildi [5:462]. Shu bilan birga, AR va VR texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan interaktiv vizualizatsiya talabalarning loyiha natijalarini yanada realistik tarzda baholash va muammolarni oldindan aniqlash imkonini berdi [7:159]. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar loyiha asosida o'qitish jarayoni ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirganini, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini berganini ko'rsatdi [13:36]. Shu bilan birga, so'rovnomalar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalar mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va guruh bo'lib ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga muvaffaq bo'lishgan [4:263]. Natijalar shuni tasdiqladiki, loyiha asosida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish faqat texnik bilimlarni oshirish bilan cheklanmay, balki talabalarning vizual tafakkur, ijodiy yondashuv va murakkab muammolarni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi [14:68]. Shu nuqtai nazardan, bu pedagogik yondashuv muhandislik ta'limining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Munozara. Olingan natijalar kompyuter grafikasi texnologiyalarini loyiha asosida o'qitish jarayoniga integratsiyalash muhandislik ta'limi sifatini sezilarli darajada oshirishda muhim pedagogik omil ekanini tasdiqlaydi [6:19]. Ushbu yondashuv talabalarda analitik va tizimli fikrlash, kreativ yechimlar ishlab chiqish, zamonaviy injiniring dasturlari bilan ishlash hamda jamoaviy faoliyat yuritish kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarning vizual tafakkuri va fazoviy tasavvuri ham sezilarli darajada mustahkamlanadi, bu esa murakkab konstruksiyalarni modellashtirish va optimallashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega [8:48]. Bundan tashqari, AR va VR texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi murakkab texnik jarayonlarni vizual idrok etishni yengillashtirib, qaror qabul qilish samaradorligini oshiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar real muhandislik obyektlarini virtual muhitda tahlil qilish, sinovdan o'tkazish va turli dizayn variantlarini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ijodiy va innovatsion yondashuvni rag'batlantiradi [10:4]. Shuningdek, loyiha asosida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish talabalarda mustaqil ishlash, o'z qarorlarini asoslash va loyiha natijalarini estetik jihatdan vizual taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantiradi [11:270]. Natijada bo'lajak muhandislarining kasbiy tayyorgarligi mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ravishda shakllanadi, ular murakkab muhandislik loyihalarini rejalashtirish, loyihalashtirish va baholashda yuqori darajada samarali bo'lishadi [12:179]. Bundan tashqari, olingan natijalar pedagogik metodlar va texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini yanada oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Loyiha asosida o'qitish modeli nafaqat texnik bilimlarni oshirish bilan cheklanmay, balki talabalarda ijodiy tafakkur, jamoaviy ishlash va murakkab masalalarni tizimli tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [7:160]. Shu nuqtai nazardan, kompyuter grafikasi, AR/VR texnologiyalari va loyiha asosida o'qitish pedagogik strategiyasini uyg'unlashtirish muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish va uni raqamli transformatsiya jarayonlariga moslashtirishning samarali usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kompyuter grafikasi texnologiyalari muhandislik ta'limida loyiha asosida o'qitishni samarali tashkil etishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar nafaqat texnik bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, balki murakkab muammolarni tizimli tahlil qilish, konstruktiv yechimlar ishlab chiqish va ularni vizual asoslash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, talabalarda fazoviy tafakkur, kreativ yondashuv, jamoaviy ishlash va qaror qabul qilish kompetensiyalari ham sezilarli darajada rivojlanadi, bu esa ularni amaliy muhandislik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bois oliy ta'lim tizimida raqamli grafik vositalarni o'quv jarayoniga chuqur va tizimli integratsiyalash, loyiha asosida o'qitish metodlarini kengaytirish hamda tajriba asosidagi ta'limni rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bo'lajak muhandislarni mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ravishda tayyorlash, raqobatbardosh va innovatsion salohiyatga ega mutaxassislar yetishtirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, kompyuter grafikasi va loyiha asosida o'qitish metodlarining uyg'unligi muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish va ta'lim jarayonini amaliy va interaktiv shaklda tashkil etishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, AR/VR texnologiyalarini integratsiyalash talabalarining vizual va analitik tafakkurini yanada rivojlantiradi, murakkab muhandislik obyektlarini modellashtirish va tahlil qilish jarayonini optimallashtiradi. Umuman olganda, loyiha asosida kompyuter grafikasi texnologiyalaridan foydalanish muhandislik ta'limida ilmiy-amaliy salohiyatni oshirish, pedagogik jarayonni samarali boshqarish va raqamli davrga mos kompetensiyalarni shakllantirishning ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847 /3887-son;
2. Khojamkulov Rasulbek Kurbon o'gli. "BO'LAJAK MUHANDISLARNI LOYIHALASH KOMPETENTSIYALARINI KOMPYUTER GRAFIKASI YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI" Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 5 (4) – 2024;
3. Khojamkulov Rasulbek Kurban o'gli. "THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS" Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. № 11 (4)-2024;
4. Imomov Fozil Shakarbek o'g'li. (2025). CHIZMACHILIK DARSLARIDA KICHIK GURUHLAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUV. *PEDAGOGS*, 73(1), 262-265. <https://scientific-jl.org/ped/article/view/10297>
5. Юсупова, Шохиста Алимжановна, and Наби Пардабоевич Жумабоев. "ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ." *Science and Education* 2.2 (2021): 460-464.
6. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING IJODIY SALOHİYATGA TA'SIRI." 2025,

7. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." *Innovative Science in Modern Research* (2023): 156-157.
8. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY*. Vol. 1. No. 5. 2025.
9. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – T. 5. – №. 02. – C. 48-58.
10. Imomov Fozil Shakarbek o'g'li. (2025, октябрь 24). MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17433530>
11. Shakarbek o'g'li, Imomov Fozil. "CHIZMACHILIK DARSLARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA USUL VA VOSITALAR." *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI* 14.01 (2025): 266-269.
12. Sabitovich I. O. AYLANISH SIRTNING UMUMIY VAZIYATDAGI TEKISLIK BILAN KESISHISHIGA DOIR MASALALARNING MAQSADLI BERILISHI //CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. – 2025. – T. 1. – №. 5. – C. 173-181.
13. Inoyatov O. S. NUQTA VA TO 'G 'RI CHIZIQLARNING PERSPEKTIVADAGI TASVIRI: GEOMETRIK MODELLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI //SHOKH LIBRARY. – 2026. – T. 1. – №. 1.
14. Pardaboevich, Jumaboev Nabi, and Usmanov Botir Allaberdievich. "The main tasks of fine arts in the educational process." *International Journal on Orange Technologies* 3.5 (2021): 64-67.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).